



THE ROLE OF AFGHANISTAN AND TAJIKISTAN IN THE CENTRAL ASIAN REGIONAL SECURITY SYSTEM

Ikromqul Rakhmonkulov

Independent Researcher at STIBOM

E-mail: mumtoz1990@bk.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: regional security, Central Asia, Afghanistan, Tajikistan, Heartland, Rimland, Grand Chessboard, regional security complex, transnational threats.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the role of Afghanistan and Tajikistan in the regional security system of Central Asia on the basis of contemporary geopolitical and regional security theories. Within the framework of the study, the geographical location of these states, their level of political stability, and their participation in transboundary processes are examined as key factors influencing regional security. Classical geopolitical approaches - the Heartland and Rimland concepts - as well as the idea of the Grand Chessboard are employed as methodological foundations to elucidate the balance of power and mechanisms of geostrategic competition in Central Asia. In addition, drawing on Regional Security Complex Theory (RSCT), the article substantiates the security interdependence shaped through Afghanistan and Tajikistan and analyzes the impact of transnational threats - such as terrorism, extremism, drug trafficking, and irregular migration - on regional stability.

AFG‘ONISTON VA TOJIKISTONNING MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY XAVFSIZLIK TIZIMIDAGI O‘RNI

Ikromqul Raxmonkulov

STIBOM mustaqil izlanuvchisi

Electron pochta: mumtoz1990@bk.ru

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: mintaqaviy xavfsizlik, **Annotatsiya:** Mazkur maqolada

Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Tojikiston, «Hartlend», «Rimlend», «Buyuk shaxmat taxtasi» mintaqaviy xavfsizlik kompleksi, transmilliy tahdidlar.

Afg'oniston va Tojikistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o'zni zamonaviy geosiyosiy va mintaqaviy xavfsizlik nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ushbu davlatlarning geografik joylashuvi, siyosiy barqarorlik darajasi hamda transchegaraviy jarayonlardagi ishtiroki mintaqaviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Klassik geosiyosiy yondashuvlar — «Hartlend» va «Rimlend» konsepsiyalari hamda «Buyuk shaxmat taxtasi» g'oyasi metodologik asos sifatida qo'llanilib, Markaziy Osiyodagi kuchlar muvozanati va geostrategik raqobat mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasi (RSCT) asosida Afg'oniston va Tojikiston orqali shakllanayotgan xavfsizlik o'zaro bog'liqligi hamda terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va noqonuniy migratsiya kabi transmilliy tahdidlarning mintaqaviy barqarorlikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi.

РОЛЬ АФГАНИСТАНА И ТАДЖИКИСТАНА В РЕГИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ БЕЗОПАСНОСТИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Икромкул Рахмонкулов

Независимый соискатель STIBOM

Электронная почта: mumtoz1990@bk.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: региональная безопасность, Центральная Азия, Афганистан, Таджикистан, «Хартленд», «Римленд», «Большая шахматная доска», региональный комплекс безопасности, транснациональные угрозы.

Аннотация: В данной статье анализируется роль Афганистана и Таджикистана в региональной системе безопасности Центральной Азии на основе современных геополитических и теорий региональной безопасности. В рамках исследования географическое положение данных государств, уровень их политической стабильности, а также участие в трансграничных процессах рассматриваются как ключевые факторы, оказывающие влияние на региональную безопасность. Классические геополитические подходы - концепции «Хартленд» и «Римленд», а также идея «Большой шахматной доски» - используются в качестве методологической основы для раскрытия баланса сил и механизмов геостратегической

конкуренции в Центральной Азии. Кроме того, на основе теории региональных комплексов безопасности (RSCT) научно обосновывается взаимозависимость безопасности, формирующаяся через Афганистан и Таджикистан, а также анализируется влияние транснациональных угроз - терроризма, экстремизма, наркотрафика и нелегальной миграции - на региональную стабильность.

Kirish. Afg'on-tojik munosabatlari Markaziy Osiyo xavfsizlik muhitini belgilab beruvchi muhim mintaqaviy omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonlarni tahlil qilish Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini tushunish, mintaqaviy hamkorlik salohiyatini baholash va uzoq muddatli barqarorlik istiqbollari belgilashni ilmiy jihatdan taqozo etadi. Mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha ilmiy yondashuvlar, xususan, N.Spaykmen va X.Makkinderning geosiyosiy konsepsiyalari, B.Buzan va O.Vever tomonidan ishlab chiqilgan «Mintaqaviy xavfsizlik kompleksi» nazariyasi (RSCT), shuningdek, realizm, liberalizm va konstruktivizm maktablari Afg'oniston va Tojikistonning mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o'rini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharxi. XX asrning o'rtalarida N.Spaykmen o'zining «Rimlend» nazariyasini yaratdi va uni «Hartlend» nazariyasiga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, dunyo geosiyosiy ustunligi – «Hartlend»da (Markaziy Yevroosiyoda) emas, balki uni o'rab turgan quyidagi hudud – «Rimlend», ya'ni Yevroosiyoning «yangi qirrasida» joylashgan davlatlar va sohilbo'yi mintaqalarida. Bunga Yevropaning janubi va g'arbi, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Sharqiy Osiyo sohillari kiradi. Shu tariqa N.Spaykmen «Kim «Rimlend»ni nazorat qilsa, Yevroosiyoni nazorat qiladi. Kim Yevroosiyoni nazorat qilsa, dunyoni nazorat qiladi» degan mashhur formulasini yaratdi. «Rimlend» nazariyasi hali ham geosiyosiy tahlilda dolzarb, chunki Yevroosiyoda sohil hududlari global savdo, iqtisod va xavfsizlikning asosiy markazi bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo va Afg'oniston «Rimlend»ning bir qismi sifatida qaraladi. Bu hududlar strategik jihatdan juda ahamiyatli, chunki bu hudud zamin va dengiz qudratlari uchrashib, to'qnashadigan bufer zonaga kiradi. Afg'oniston Janubiy va Markaziy Osiyoni bog'laydigan ko'priksifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, energiya va savdo oqimlari hamda harbiy va siyosiy ta'sir nuqtasi sifatida xizmat qiladi. Hududning strategik ahamiyati faqat harbiy emas, balki geoiqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, energiya va savdo yo'laklari uchun markazga aylanish salohiyatiga ega. Tojikiston esa markaziy transport yo'laklari va Rossiya bilan bog'lanish nuqtasi sifatida strategik ahamiyatga ega.

Bjezinskiyning «Buyuk shaxmat taxtasi» asarida ilgari surilgan geosiyosiy konsepsiya Markaziy Osiyoga nisbatan strukturaviy jihatdan hanuz dolzarb, biroq zamonaviy sharoitda amaliy mexanizmlari va aktorlar nisbatida qayta formatlangan. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida integratsiyaga qaratilgan amaliy harakatlarning faollashuvi mintaqaning geosiyosiy sub’ekt sifatidagi rolini mustahkamlamoqda. Bu jarayon mintaqani faqat katta kuchlar raqobati maydoni sifatida emas, balki ichki muvofiqlashuv va strategik manyovr imkoniyatiga ega aktorlar majmuasi sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Geografik jihatdan yaqin joylashgan davlatlarning xavfsizlikka doir tahdidlari, manfaatlari va zaifliklari shunday darajada o‘zaro bog‘langanki, har bir davlat xavfsizligini alohida emas, balki mintaqaviy yaxlitlik doirasida hal qilishi zaruratga aylanmoqda. Xavfsizlik muammolarini har bir mintaqaning o‘zida hal qilishga qaratilgan ilmiy nazariya Markaziy Osiyo uchun ham amal qiladi. Bu nazariyani B.Buzan va O.Vever ishlab chiqqan. Ular xalqaro xavfsizlikni faqat global kuchlar raqobati nuqtai nazaridan emas, balki alohida mintaqalarda shakllanadigan xavfsizlik dinamikasi orqali tushuntirish mumkinligini isbotlab berdilar.

B.Buzan va O.Vever bu jihatdan Afg‘onistonni ko‘pincha Markaziy Osiyo xavfsizlik muhitiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi, lekin yaqin omil sifatida baholaydi[2]. Ushbu mutaxassislar Markaziy Osiyoni O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘izistondan iborat to‘rt respublika va Qozog‘istondan iborat mintaqadeb qayd etgan. Ular mintaqaning xavfsizlik muammolari nihoyatda ko‘pligi, bu hududdagi barcha davlatlar ichki jihatdan zaifligiga e‘tibor qaratgan. Ular o‘zlarinig mintaqaviy xavfsizlik kompleksi (Regional Security Complex – RSC) nazariyasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini «premodern», ya‘ni rivojlanish darajasi va davlat boshqaruvi sust (davlatchilik institutlari shakllanish jarayonida bo‘lgan), deb ta‘riflagan. Bu davlatlar zamonaviylikka intilayotgan bo‘lsa-da, hali yetarli darajada mustahkam emas. Mintaqada asosan Tojikiston va uning qo‘shnisi Afg‘oniston Osiyoning premodern davlatlari sifatida keltirilgan.

B.Buzan va O.Vever Kavkaz va Markaziy Osiyoni postsovet mintaqaviy xavfsizlik kompleksiga juda bog‘langan, deb aytadi. Ammo Kavkaz Markaziy Osiyoga nisbatan ko‘proq izolyator, ya‘ni ikki yoki undan ortiq katta xavfsizlik mintaqalarini bir-biridan ajratib turuvchi hudud vazifasini bajaradi. Chunki bu hududda Turkiya va Eron ta‘sir doirasi faol sanaladi.

Muhokama va natijalat. XX asr boshida britaniyalik geograf Xelford Makkinder Yevroosiyoning markaziy qismi ustidan geosiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan kuch butun dunyo taqdiriga ta‘sir o‘tkazishi mumkinligi haqidagi «Hartlend» nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, tayanch nuqta Yevroosiyoda bo‘lib, uning o‘ziga xos geografiyaga ega yurak qismi – «Hartlend» deb atalab, bu hudud dunyoda harbiy-siyosiy ustunlikka erishish uchun eng

muhim makon deb qaraladi. Unga Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa kiradi. Shu bois, «Kim Hartlendni nazorat qilsa, u dunyoning buyuk orollarini (Evroosiyo va Afrika) nazorat qiladi, kim ularni nazorat qilsa, u dunyoni nazorat qiladi» mazmunidagi ibora paydo bo'lgan. Bugungi xalqaro munosabatlar tizimida Hartlend hududi hanuz geostrategik yadro sifatida qaraladi, biroq uning ahamiyati endilikda faqat harbiy ustunlik bilan cheklanmay, energetik xavfsizlik, transport-logistika aloqalari va siyosiy ta'sir omillari bilan belgilanmoqda.

Jumladan, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari bo'yicha pokistonlik mutaxassislar: gender va rivojlanish bo'yicha tadqiqotchi Ayishe Xon, islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyasi bo'yicha mutaxassis Muhammad Doniyol Xon va Peshovar universiteti professori Tariq Amin «Hartlend» nazariyasi asosida AQShning Afg'onistondagi geosiyosiy va geostrategik manfaatlarini tahlil qilgan[1]. Ularning fikricha, Afg'onistonning geostrategik joylashuvi tarixan ko'plab xorijiy bosqinchilar, investorlar va manfaatdor tomonlarni o'ziga jalb qilgan. Afg'oniston «Hartlend»ning markaziy qismi sifatida «yurak» hududga tenglashtiriladi. Shu bois bu hudud AQSh, RF, Xitoy, Eron, Pokiston va Hindiston o'rtasidagi geosiyosiy raqobat markazi sanalishi ta'kidlangan. AQShning 2001 yilda Afg'onistonga kirishi esa aynan «Hartlend»ga egalik qilish strategiyasining zamonaviy shakli sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, amerikaliklar bu hududga nafaqat «Tolibon» ta'sirini kamaytirish, balki neft va gaz boy resurslarini qo'lga kiritish, Afg'oniston orqali Markaziy Osiyoga yo'l ochish, Xitoy va RF ta'sirini cheklashni ham ko'zlagani aytilgan. Umuman, amerikaliklarning maqsadi ko'p qirrali va ustuvor bo'lib, mintaqani nazorat qilishga qaratilgan.

Pokistonlik mutaxassislar AQShning afg'on zaminidan chiqib ketishi masalasiga ham to'xtalgan. Ularga ko'ra, mintaqada «kuch vakuumi»ni (power vacuum) hosil qiladi va bu hududni yana «Katta yangi o'yin» maydoniga aylantiradi. O'z navbatida Afg'onistonning beqarorligi mintaqa xavfsizligi mexanizmlarini zaiflashtiradi.

Markaziy Osiyo esa zaif kuchga ega subkompleks sifatida keltirilgan. Katta aktorlar bu hududni to'liq nazorat qilishga ochiqdan-ochiq intilmaydi, chunki bu harakat boshqa aktorning qarshiligiga duch kelishi mumkin. Shu bois Markaziy Osiyoda potensial izolyatorlik roli bor, ammo hozirda bu vazifani bajarmaydi. Chunki bu hududda izolyatorlik rolini qo'shni Afg'oniston bajaradi. Mintaqaviy xavfsizlik kompleksi (Regional Security Complex – RSC) nazariyasiga ko'ra, Afg'oniston Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqasini ajratuvchi hudud sanaladi.

Umuman olganda B.Buzan va O.Vever Markaziy Osiyo hozircha alohida bir subkompleks bo'lib turgani, biroq istiqbolda mustaqil mintaqaviy xavfsizlik kompleksiga aylanish imkoniyatiga egaligini aytgan. Ya'ni mintaqa davlatlari konsolidatsiya qilsa, Rossiya

Federatsiyasi asta-sekin kuchsizlanib borsa va boshqa biror katta aktor bu hududga kirib kelmasa, unda Markaziy Osiyo mustaqil mintaqaviy xavfsilik kompleksini yarata oladi. Mualliflar mintaqada kutilganidek, «geopolitik katta o‘yinlar» yuz bermagani, shu jihati bilan bu hudud Kavkazdan farqlanishi, chunki Markaziy Osiyoda Turkiya va Eronning faolligi past ekani aytilgan. Buning o‘rniga ushbu submintaqaga tashqi aralashuvlar ko‘proq transmilliy shakllarda kechayotgani aytilgan.

Mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasiga yaqin mazmundagi, ya‘ni mintaqada iqtisodiy integratsiya va rivojlanishni faollashtirish orqali xavfsizlikni ta‘minlash imkoniyati mavjudligi haqidagi qarash Markaziy Osiyo uchun ham mosdir. Harbiy barqarorlikka erishilmasdan turib iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish qiyin, biroq iqtisodiy integratsiyasiz barqaror xavfsizlik ham mustahkamlanmaydi. Bu o‘zaro bog‘liqlik B.Buzan va O.Veverning RSC nazariyasining ichki dinamikasini amaliy jihatdan to‘ldiradi.

Xalqaro munosabatlar bo‘yicha pokistonlik mutaxassislar P.Mug‘al va S.Sulaymon mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda «iqtisodiy determinizm» yondashuvini ilgari suradi[3]. Bu borada mintaqa davlatlarining iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi, madaniy xilma-xilligi va ijtimoiylashuvi chambarchas ekanini ta‘kidlaydi. Ularning fikricha, davlatlar va mintaqalar o‘zaro muammolarni hamkorlik asosida hal etishi, birgalikda o‘sishi mumkin. Bunday hamkorlik global muammolarni ham diplomatik yo‘l bilan hal qilishga yordam beradi. Jumladan, bu kabi nazariyaga asoslanish Afg‘onistonning mintaqaviy aktorga aylanishi uchun imkoniyat yaratadi: buning uchun avvalo tinchlik va barqarorlik, so‘ng esa rivojlanish loyihalari zarur. Afg‘onistonning muhim Yevroosiyo quruqlik yo‘lagi va potensial savdo markazi sifatidagi geosiyosiy-geostrategik joylashuvi uning ichki bozorini jonlantirish, xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, iqtisodiyotning tashqi yordam va kreditlarga qaramligini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Mintaqaviy bog‘lovchi nuqta sifatida Afg‘oniston atrofdagi mintaqalar o‘rtasida savdo yo‘llarining tezlashuvini ta‘minlaydigan tarmoqni bog‘lab berishi mumkin. Bu esa mintaqadagi raqib davlatlarning antagonistik (keskin raqobatga asoslangan) munosabatlarini kamaytib, o‘zaro aloqalarni tijorat manfaatlariga yo‘naltiradi. Ushbu konseptual doirada, mintaqaviy integratsiya va geosiyosat doirasida Afg‘oniston orqali amalga oshiriladigan mintaqaviy bog‘liqlik Janubiy Osiyo va undan keng hududlarda Afg‘onistonning ahamiyatini sezilarli oshiradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Afg‘oniston va Tojikistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni geografik yaqinlik va tarixiy-madaniy omillar bilan cheklanib qolmay, ularning geosiyosiy joylashuvi, davlatchilik salohiyati va transmilliy tahdidlarga duch keluvchanligi bilan belgilanadi. Afg‘onistondagi siyosiy beqarorlik, qurolli

tuzilmalar faolligi, terrorizm va narkotrafik kabi xavflar mintaqada xavfsizlikni o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida shakllantirmoqda. Geosiyosiy (Hartlend va Rimlend) hamda mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyalari doirasida Afg‘oniston mintaqalararo izolyator va bog‘lovchi hudud, Tojikiston esa bu tahdidlarni birinchi qabul qiluvchi bufer davlat sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash faqat harbiy-siyosiy vositalar bilan cheklanmasligi lozim. Iqtisodiy integratsiya, institutsional hamkorlik va ijtimoiy barqarorlik xavfsizlikning muhim tarkibiy qismlaridir. Shu bois, Afg‘onistonni bosqichma-bosqich mintaqaviy jarayonlarga jalb etish va Tojikistonning xavfsizlik sohasidagi institutsional tajribasidan foydalanish Markaziy Osiyoda barqaror va uzoq muddatli mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish uchun zarur siyosiy shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dr. Ayesha Khan, Dr. Muhammad Daniyal Khan, Mr. Tariq Amin. Sir Halford John Mackinder’s Theories and US Geopolitical and Geostrategic Interest in Afghanistan. Pakistan. E-ISSN: 2710-4958. Vol. 3. No. 03 (July-Sep) 2023. Page 72-80.
2. S.Bo‘ronov. Transafg‘on transport koridorining strategik xususiyatlari. Oriental journal of history, politics and law. 2022 y. ISSN: 2181-2780. – B. 392-398.
3. Sh.Mirziyoyev. Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida. Xalq so‘zi. № 235 (9130). 13 noyabr, 2025.
4. B.Zbignev. Buyuk shaxmat taxtasi. Ingliz tilidan “Sharqshunos tahlilchilar” jamoasi tarjimasida. Toshkent: “TRUST AND SUPPORT” MChJ, “Tirilish” nashriyoti. 2022 y. – B. 178-183. ISBN 978-9943-8217-4-3.
5. Barry Buzan and Ole Wæver. Regions and Powers The Structure of International Security. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 4 dec, 2003 y. - Pages. 423-426.
6. Pashmina Mughal, & Sadia Suleman. (2021). Global Geopolitical Dynamics and Prospects for Afghanistan’s Regional Connectivity. NUST Journal of International Peace & Stability, 4(2), 16–34. <https://doi.org/10.37540/njips.v4i2.93>.